

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	



IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Marpatov Shavkat Mavlonxonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari resurs bazasining samaradorligini oshirish yo'llari, uning bank faoliyati barqarorligini ta'minlashdagi iqtisodiy ahamiyati hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirishdagi roli kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda bank resurs bazasining tarkibiy tuzilmasi, uning likvidlikni boshqarish, kreditlash salohiyatini kengaytirish va risklarni minimallashtirishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank resurs bazasiga jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish, depozit va nodavlat moliyaviy manbalarni diversifikatsiyalash, resurslar qiymatini optimallashtirish hamda banklar o'rtasida raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari tijorat banklari resurs bazasi samaradorligini oshirish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, resurs bazasi, bank resurslari, moliyaviy resurslar samaradorligi, bank likvidligi, kreditlash salohiyati, resurs siyosati, moliyaviy barqarorlik, bank raqobatbardoshligi.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of improving the efficiency of the resource base of commercial banks in the process of economic reforms. The structure, sources of formation, stability, cost, and maturity of the bank resource base are considered important factors affecting the financial condition and lending capacity of commercial banks. The article also analyzes ways to improve resource base efficiency by attracting deposit funds, strengthening bank capital, utilizing foreign credit lines, diversifying financial resources, and developing digital banking services. Scientific proposals and practical recommendations are developed to ensure the rational management of banking resources, reduce their cost, maintain maturity balance, and strengthen liquidity and financial stability.

Keywords: economic reforms, commercial banks, banking resources, resource base, deposit funds, bank capital, resource efficiency, liquidity, financial stability, diversification, deposit policy, digital banking services.

Аннотация. В статье исследованы теоретические и практические аспекты повышения эффективности ресурсной базы коммерческих банков в процессе экономических реформ. Структура, источники формирования, устойчивость, стоимость и сроки банковской ресурсной базы рассмотрены как важные факторы, влияющие на финансовое состояние и кредитные возможности коммерческих банков. Также проанализированы вопросы повышения эффективности ресурсной базы посредством привлечения депозитных средств, укрепления банковского капитала, использования зарубежных кредитных линий, диверсификации финансовых ресурсов и развития цифровых банковских услуг. Разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на рациональное управление банковскими ресурсами, снижение их стоимости, обеспечение сбалансированности по срокам, а также укрепление ликвидности и финансовой устойчивости.

Ключевые слова: экономические реформы, коммерческие банки, банковские ресурсы, ресурсная база, депозитные средства, банковский капитал, эффективность ресурсов, ликвидность, финансовая устойчивость, диверсификация, депозитная политика, цифровые банковские услуги.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar, moliya bozorlaridagi beqarorlik, foiz stavkalarining o'zgarishi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tijorat banklari faoliyatiga yangi talablarni qo'ymoqda. Bunday sharoitda banklarning moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan ularning yetarli, arzon, uzoq muddatli va diversifikatsiyalangan resurs bazasini shakllantira olishiga bog'liq. Tijorat banklari resurs bazasi kreditlash, investitsiyalash, hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish va mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning iqtisodiy asosini tashkil etadi.

Bank resurs bazasi bankning o'z mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning depozitlari, banklararo kreditlar, xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan mablag'lar, chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari hamda boshqa moliyaviy majburiyatlardan tarkib topadi. Mazkur manbalarning hajmi bilan bir qatorda ularning

qiymati, muddati, barqarorligi va qaytarib olinish ehtimoli ham bank faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli resurs bazasi samaradorligini faqat jalb qilingan mablag'lar miqdori bilan emas, balki ushbu mablag'larning kredit va investitsiya operatsiyalariga oqilona joylashtirilishi orqali baholash maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bank tizimida davlat ishtirokini qisqartirish, raqobat muhitini kuchaytirish, banklarni transformatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va xususiy kapital ishtirokini kengaytirishga qaratilgan. 2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasida bank xizmatlarining hududiy qamrovini kengaytirish, aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish, banklarning institutsional mustaqilligini mustahkamlash va bozor tamoyillari asosida faoliyat yuritishini ta'minlash muhim vazifalar sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-iyul holatida bank tizimidagi depozitlar qoldig'ining yillik o'sish sur'ati 31 foizni tashkil etib, depozitlarning jami bank majburiyatlaridagi ulushi 45 foizga yetgan. Shu bilan birga, kreditlarning depozitlarga nisbati 186 foizni tashkil etgan va kreditlar bilan depozitlar o'rtasidagi mutlaq tafovut 228 trillion so'm miqdorida saqlanib qolgan. Ushbu holat tijorat banklarida ichki depozit manbalarini yanada kengaytirish, uzoq muddatli omonatlar ulushini oshirish va kreditlash sur'atlarini resurs bazasining real imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Resurs bazasi samaradorligini oshirish bank likvidligi, kapital yetarliligi, foiz marjasi va rentabellik ko'rsatkichlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashni talab qiladi. Haddan tashqari qimmat resurslarning jalb qilinishi bankning foiz xarajatlarini oshirib, sof foiz daromadini kamaytirishi mumkin. Aksincha, talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar ulushining yuqoriligi resurslarning o'rtacha qiymatini pasaytirsada, likvidlik xavfini kuchaytiradi. Shu bois tijorat banklari resurslarni jalb qilish siyosatini muddat, valyuta, mijozlar guruhi va mablag'larning qiymati bo'yicha diversifikatsiya qilishi lozim.

Raqamli bank xizmatlari resurs bazasini kengaytirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mobil ilovalar orqali masofadan omonat ochish, avtomatik jamg'arma xizmatlari, shaxsiylashtirilgan depozit mahsulotlari, onlayn bank xizmatlari va mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilish banklarga qo'shimcha mablag'larni jalb etish imkonini beradi. Biroq raqamlashtirishning o'zi resurs bazasining barqarorligini to'liq ta'minlamaydi. Buning uchun mijozlarning bankka bo'lgan ishonchi, xizmatlar sifati, depozitlarning kafolatlanishi va bank faoliyatining ochiqqligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi iqtisodiy islohotlar jarayonida tijorat banklari resurs bazasining tarkibi va shakllanish xususiyatlarini o'rganish, undan foydalanish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda resurs bazasining barqarorligi, diversifikatsiyasi va rentabelligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

J.Y. Jin, K. Kanagaretnam va W. Wang 2020-yilda banklarning moliyalashtirish tarkibiga jamiytdagi ishonch darajasining ta'sirini tadqiq etgan. Olimlar 2000–2017-yillardagi AQSh davlat va xususiy banklari ma'lumotlari asosida ijtimoiy ishonch darajasi bilan banklarning asosiy, ya'ni barqaror depozitlari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini aniqlagan. Mualliflarning fikricha, bank joylashgan hududda ijtimoiy ishonch yuqori bo'lsa, mazkur bankning chakana depozitlarni jalb qilish imkoniyati ham oshadi. Ushbu ta'sir, ayniqsa, kichik xususiy banklar faoliyatida yaqqol namoyon bo'lgan.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, bank resurs bazasini kengaytirishda faqat yuqori foiz stavkalarini taklif qilish yetarli emasligini ta'kidlash mumkin. Bankning moliyaviy hisobdorligi, xizmat ko'rsatish sifati, mijozlar murojaatlariga tezkor javob berishi va majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi aholining ishonchini mustahkamlaydi. Demak, bankka bo'lgan ishonch uzoq muddatli va nisbatan barqaror depozit mablag'larini shakllantiruvchi nomoliyaviy omil sifatida qaralishi lozim.

M.H. Pham va N.M. Nguyen 2023-yilda Vyetnamning 27 ta tijorat banki ma'lumotlari asosida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishning bank rentabelligi va tavakkalchiligiga ta'sirini o'rgangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, turli moliyalashtirish manbalaridan foydalanadigan banklarning rentabellik darajasi yuqoriroq bo'lgan, biroq bunday banklarda tavakkalchilik darajasi ham oshgan. Olimlar resurs manbalarini diversifikatsiya qilishni ijobiy baholagan holda, uning xarajatlari va yuzaga keladigan qo'shimcha xatarlarni nazorat qilish zarurligini ko'rsatgan.

K.D. Duong, H.V. Vu va A.N.N. Le tomonidan 2023-yilda Xitoy, Tayvan va Vyetnam tijorat banklari misolida amalga oshirilgan tadqiqotda moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligi va kreditlash hajmining bank sof foiz marjasiga ta'siri tahlil qilingan. Umumiy natijalarda moliyalashtirish manbalarini keng diversifikatsiya qilish ayrim holatlarda rentabellikka salbiy ta'sir qilishi aniqlangan. Biroq inqiroz sharoitida turli resurs manbalariga ega bo'lish banklar barqarorligini qo'llab-quvvatlagan. Olimlar ta'sir natijalari mamlakatlarning



bank bozori tuzilishi va institutsional xususiyatlariga qarab farqlanishini qayd etgan.

T.C. Nguyen 2023-yildagi tadqiqotida 27 mamlakatdagi 1 829 ta tijorat bankining 2005–2020-yillardagi ko'rsatkichlarini tahlil qilgan. Tadqiqot natijasida ulgurji moliyalashtirish bilan bank barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik chiziqli emasligi aniqlangan. Depozitdan tashqari moliyalashtirish manbalarining cheklangan ulushi bank tavakkalchiligini kamaytirishi mumkin, biroq ulgurji va qisqa muddatli resurslarga haddan tashqari tayanish bankning to'lovga qobiliyatsizlik xavfini oshiradi. Iqtisodiy siyosatdagi noaniqlik kuchaygan davrlarda ushbu salbiy ta'sir yanada kuchli namoyon bo'ladi.

T.C. Nguyenning xulosalari iqtisodiy islohotlar sharoitidagi tijorat banklari uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki islohotlar davrida kreditlarga bo'lgan talabning tez o'sishi banklarni xalqaro kredit liniyalari, banklararo qarzar va boshqa tashqi manbalardan faol foydalanishga undashi mumkin. Bunday resurslar depozit bazasini to'ldiradi, ammo ularning foiz stavkasi, valyuta xavfi va qaytarish muddati yetarlicha boshqarilmasa, bankning likvidligi va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Markaziy bankining tahliliy ma'lumotlarida depozitlarning bank majburiyatlaridagi ulushi oshib borayotgani ijobiy holat sifatida baholangan. Biroq depozitlar hajmining kredit qo'yilmalaridan sezilarli darajada pastligi banklarning tashqi va markazlashgan resurslarga ehtiyojini saqlab qolmoqda. Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarning yuqori ulushi esa mablag'larning tezda qaytarib olinishi bilan bog'liq likvidlik xavfini yuzaga keltiradi.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari resurs bazasining samaradorligini baholashda jalb qilingan mablag'larning mutlaq hajmini asosiy ko'rsatkich sifatida qabul qilish yetarli emas. Samaradorlikni baholashda depozitlarning jami majburiyatlardagi ulushi, resurslarning o'rtacha qiymati, barqaror depozitlar ulushi, resurs va aktivlar muddatlarining muvofiqligi, kreditlarning depozitlarga nisbati, sof foiz marjasi hamda jalb qilingan mablag'larning rentabelligi kompleks tarzda hisobga olinishi lozim.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, resurs manbalarini diversifikatsiya qilish bankning bitta moliyalashtirish manbasiga qaramligini kamaytiradi, ammo diversifikatsiyaning haddan tashqari kengayishi resurslar qiymati va tavakkalchilik darajasini oshirishi mumkin. Shuning uchun iqtisodiy islohotlar jarayonida tijorat banklari resurs bazasini oshirish bilan birga uning maqbul tarkibini shakllantirish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining uzoq muddatli depozitlarini ko'paytirish, bank kapitalini mustahkamlash va qimmat tashqi resurslardan foydalanishni iqtisodiy chegaralar doirasida tashkil etishi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyosiy tahlil, retrospektiv va istiqbolli tahlil, shuningdek, empirik tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usuli asosida jahon amaliyotida tijorat banklari resurs bazasini samarali shakllantirish va undan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, uning bank faoliyati barqarorligini ta'minlashdagi iqtisodiy ahamiyati mamlakatimiz bank tizimida mavjud holat bilan solishtirildi hamda ushbu asosda tegishli ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ikki pog'onali bank tizimi izchil shakllanib, rivojlanib bormoqda, bank xizmatlarining turlari va sifati sezilarli darajada takomillashmoqda hamda xorijiy banklar bilan o'zaro hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda. Biroq tijorat banklarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq ayrim masalalar hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur holat tijorat banklari resurs bazasini shakllantirish jarayonida uning tarkibiy tuzilmasini optimallashtirish, resurslar o'rtasidagi optimal nisbatlarni aniqlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu nisbatlar normativ talablar hamda banklarning strategik faoliyat maqsadlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tijorat banklari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, bank resurs bazasining optimal tuzilishi deganda uning tarkibiy elementlari o'rtasida shunday mutanosiblikni ta'minlash tushuniladiki, bu bankning asosiy strategik maqsadlariga, balans likvidligini saqlash, kapital yetariligidini ta'minlash hamda bank faoliyati samaradorligini oshirishga bir vaqtning o'zida erishish imkonini beradi. Mazkur yondashuv tijorat banklari resurs bazasi samaradorligini oshirishning muhim nazariy va amaliy asosini tashkil etadi.

Depozitlar barqarorligining vaqt davomida qanday o'zgarishini tushunish uchun, avvalo, barcha depozitlar bir xil darajada barqaror emasligini ta'kidlash zarur. Ayrim omonatchilar depozitlarning xavfsizligi va to'lov qulayligini ustuvor deb bilib, foiz stavkalari o'zgarishi yoki bozor tebranishlaridan qat'i nazar, o'z mablag'larini banklarda saqlab qolishga moyil bo'ladilar. Boshqa bir guruh omonatchilar esa bank depozitlariga nisbatan kamroq bog'langan bo'lib, muqobil moliyaviy instrumentlarda yuqoriroq daromad imkoniyatlari paydo bo'lishi bilan o'z mablag'larini tezkor ravishda yo'naltirishga intiladilar.

Muayyan davrda bank depozitlarini tanlagan investorlar muqobil investitsiya vositalarini, xususan, pul bozori fondlarini afzal ko'ruvchi investorlar bilan solishtirganda foiz stavkalariga nisbatan kamroq sezgir bo'ladilar. Shu bilan birga, bank tizimiga yangi jalb etilayotgan depozitlar, odatda, mavjud omonatchilar bazasiga nisbatan foiz stavkalariga ko'proq sezgir bo'lib, bu holat umumiy depozit bazasining beqarorlik darajasini oshirishi mumkin. Tijorat banklari resurs bazasining samaradorligini oshirish jarayonida nafaqat depozitlar hajmini kengaytirish, balki ularning sifat tarkibini, barqarorlik darajasini va foiz stavkalariga sezgirligini inobatga olish muhim ekanini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, barqaror va uzoq muddatli depozitlarni rag'batlantirish tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash va undan samarali foydalanishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Xususan, an'anaviy va noan'anaviy pul-kredit siyosati o'rtasida yangi o'zaro bog'liqlik aniqlangan: agar foiz stavkalarining oshirilishi miqdoriy yengillashtirish (QE) natijasida bank tizimida zaxiralar va depozitlar hajmi yuqori bo'lgan davrda amalga oshirilsa, depozitlarning bank tizimidan chiqib ketish xavfi kuchayishi mumkin. Ushbu xavf darajasi banklarning risklarni boshqarish siyosati va aktivlarni joylashtirish strategiyasiga bevosita bog'liq bo'ladi(1-jadval).

1-jadval

Jismoniy shaxslar depozitlarini jalb qilish samaradorligini baholash mezonlari

Samaradorlik darajasi	Ball oralig'i	Baholash mazmuni	Baholash natijasining amaliy ifodasi
Yuqori	80-100 ball	Depozitlar hajmi yuqori sur'atlarda o'sadi, bankning sektor bo'yicha ulushi ortadi va masofaviy depozit xizmatlari keng qo'llaniladi	Jismoniy shaxslar depozitlari hajmi sezilarli oshib, bankning chakana depozitlar bozoridagi mavqeyi mustahkamlanadi
O'rta	60-79 ball	Depozitlar hajmi o'sadi, biroq sektor ulushida barqaror yuqori o'sish kuzatilmaydi	Aholi depozitlari jalb qilinadi, ammo depozit mahsulotlari va masofaviy xizmatlar samaradorligini oshirish zarurati saqlanib qoladi
Past	60 balldan kam	Depozit jalb qilish sust bo'ladi, mijozlar bazasi yetarli darajada kengaymaydi	Chakana depozit mahsulotlari jozibadorligi past bo'lib, depozit bazasini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha choralar talab etiladi

11-jadvaldagi natijalar aholi depozitlarini jalb qilish samaradorligini oshirishda nafaqat foiz stavkalari, balki depozit mahsulotlarining qulayligi, masofadan ochish imkoniyati, mobil ilovalar orqali boshqarish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati hamda bankka bo'lgan ishonch muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Bank resurs bazasida barqaror depozitlar ulushini hamda ularni daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalarga yo'naltirish samaradorligini oshirish orqali bankning daromadli faoliyatini kengaytirish taklif etiladi.

$$K_{DKF} = U_D \times S_A = (D_b / RB) \times (A_d / D_b)$$

Bu yerda:

K_{DKF} – bankning daromad keltiruvchi faoliyatini kengaytirish koeffitsiyenti;

$U_D = D_b / RB$ – bank resurs bazasidagi barqaror depozitlar ulushi;


$S_A = A_d / D_b$ – depozit resurslarini daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalarga yo'naltirish samaradorligi;

D_b – barqaror depozitlar hajmi;

RB – bankning jami resurs bazasi;

A_d – depozitlar hisobidan moliyalashtirilgan daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalar hajmi.

Natija: $U_D \uparrow$ va $S_A \uparrow \Rightarrow K_{DKF} \uparrow$, ya'ni barqaror depozitlar ulushi va ulardan foydalanish samaradorligi oshishi bankning daromad keltiruvchi faoliyatini kengaytiradi(1-rasm).



1-rasm. AT "Aloqabank" jami depozitlarining ARIMAX modeli asosida 2030-yilgacha prognozi



ARIMAX modeli natijalariga ko'ra, AT "Aloqabank" jami depozitlari **2030-yilgacha** barqaror o'sish tendensiyasini saqlab qoladi. Prognoz davrida depozitlar hajmi **2027-yildagi** qariyb 15,7 trln so'mdan **2030-yilda** 20 trln so'mdan yuqori darajaga yetishi kutilmoqda. Bu bankning resurs bazasi mustahkamlanib borishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ilmiy-nazariy va empirik tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari resurs bazasining samaradorligi bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kreditlash salohiyatini kengaytirish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, bank resurs bazasining yetarli, barqaror va optimal tarkibda shakllanishi banklarning tashqi moliyalashtirish manbalariga qaramligini kamaytiradi va moliyaviy xatarlar ta'siriga nisbatan chidamliligini oshiradi.

Empirik tahlil natijalari O'zbekiston tijorat banklarida milliy valyutadagi depozitlar hajmining **2024–2025-yillarda** barqaror o'sib borayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, jismoniy shaxslar depozitlarining tez sur'atlarda ortib borishi aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi mustahkamlanayotganidan hamda aholi jamg'armalarining bank resurs bazasidagi ahamiyati oshib borayotganidan dalolat beradi. Bu holat bank resurs bazasining barqarorligi va uzoq muddatli moliyaviy manba sifatida depozitlarning rolini kuchaytiradi.

Foiz stavkalari tahlili shuni ko'rsatdiki, tijorat banklarining depozit siyosati asosan milliy valyutadagi va uzoq muddatli resurslarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha yuqori foiz stavkalarining belgilanishi banklarning valyuta risklarini cheklash va ichki resurslar ulushini kengaytirishga qaratilgan ehtiyotkor strategiyasini aks ettiradi. Shu bilan birga, chet el valyutasidagi depozitlar bo'yicha past foiz stavkalari bank resurs bazasini muvozanatlashtirish va likvidlikni boshqarish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy holatda, tijorat banklari resurs bazasi samaradorligini oshirish jarayoni nafaqat resurslar hajmini ko'paytirish, balki ularning sifat tarkibi, barqarorligi, muddat tuzilmasi va foiz stavkalariga sezgirlikni kompleks tarzda boshqarishni talab etishini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, tijorat banklari resurs bazasi samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Milliy valyutadagi uzoq muddatli resurslarni rag'batlantirish. Tijorat banklari depozit siyosatida **1 yildan** yuqori muddatli milliy valyutadagi depozitlarni rag'batlantirishga ustuvor ahamiyat qaratishlari lozim. Bu bank resurs bazasining barqarorligini oshirib, kreditlash faoliyatining uzluksizligini ta'minlaydi.

Aholi omonatlarini jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish. Jismoniy shaxslar depozitlarining o'sish tendensiyasini inobatga olgan holda, omonat mahsulotlarini diversifikatsiyalash, raqamli omonat xizmatlarini kengaytirish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali aholi jamg'armalarini bank tizimiga yanada faol jalb etish zarur.

Resurs bazasining tarkibiy muvozanatini ta'minlash. Banklar jismoniy va yuridik shaxslar depozitlari o'rtasida optimal nisbatni saqlashga intilishlari lozim. Bu resurs bazasining barqarorligini kuchaytirib, omonatchilar konsentratsiyasi bilan bog'liq xatarlarni kamaytiradi.

Foiz risklarini boshqarish va depozitlar barqarorligini oshirish. Foiz stavkalariga yuqori sezgir bo'lgan depozitlar ulushining oshib borishi depozitlar "flight risk"ni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli banklar resurs bazasini boshqarishda foiz risklarini modellashtirish, barqaror omonatchilar qatlamini shakllantirish va aktiv-passivlarni muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirishlari zarur.

Institutsional ishonch va shaffoflikni kuchaytirish. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, huquqiy kafolatlar va moliyaviy shaffoflikni oshirish tijorat banklari resurs bazasining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi e'tiborga olinishi lozim.

Yuqoridagi xulosa va takliflar tijorat banklari resurs bazasi samaradorligini oshirish, bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda real sektorni barqaror moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ–580-son¹, **2019-yil 5-noyabr**.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ–582-son², **2019-yil 11-noyabr**.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**2020–2025-yillarga** mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-son³ Farmoni. **2020-yil 12-may**.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **2024-yilning** birinchi yarim yilligi uchun moliyaviy barqarorlik sharhi. –

1 <https://lex.uz/ru/docs/-4581969>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-4590452>

3 <https://lex.uz/docs/-4811025>



- Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning **2024-yildagi** faoliyati to'g'risida yillik hisobot. – Toshkent, 2025.
 6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten. **2024-yil dekabr**. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024.
 7. Jin J.Y., Kanagaretnam K., Wang W. *Societal Trust and Banks' Funding Structure // Journal of Behavioral and Experimental Finance*. – 2020. – Vol. 27. – Article 100357. DOI: 10.1016/j.jbef.2020.100357.
 8. Pham M.H., Nguyen N.M. *Bank Funding Diversity, Risk and Profitability: Evidence from Vietnam in the Context of the COVID-19 Pandemic // Cogent Business & Management*. – 2023. – Vol. 10. – No. 1. – Article 2191305. DOI: 10.1080/23311975.2023.2191305.
 9. Duong K.D., Le H.V., Vu D.N., Le A.N.N. *Do Bank Funding Diversity and Bank Lending Affect Net Interest Margins? Evidence from Asian Markets Before and During the COVID-19 Pandemic // SAGE Open*. – 2023. – Vol. 13. – No. 4. DOI: 10.1177/21582440231214044.
 10. Nguyen T.C. *Wholesale Funding and Bank Stability: The Impact of Economic Policy Uncertainty // Research in International Business and Finance*. – 2023. – Vol. 65. – Article 101990. DOI: 10.1016/j.ribaf.2023.101990.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100